

QASDDAN BADANGA OG'IR SHIKAST YETKAZISH JINOYATLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 3-Bosqich 303-Guruh Kursanti

Odilova Saida Nodir Qizi

Annotatsiya: *Maqolada qasddan badanga shikast yetkazish mohiyati, kelib chiqish sabablari, ularni sodir etgan shaxs tasnifi va ushbu jinoyatning aholi turmush tarziga yetkazadigan zarar va uning jamiyaga salbiy oqibatlari tasniflanadi hamda yechim izlashga qaratiladi.*

Аннотация: *В статье описывается сущность умышленного причинения телесных повреждений, его причины, классификация лица, его совершившего, вред, причиненный этим преступлением образу жизни населения, и его негативные последствия для общества, а также делается акцент на поиске решения.*

Abstract: *The article describes the nature of intentional bodily harm, its causes, the classification of the person who committed it, the harm caused by this crime to the lifestyle of the population and its negative consequences for society, and focuses on finding a solution.*

Kalit So'zlar: *Oliy sudi Plenumi, Sudlar to'g'risidagi Qonun, Sog'liqni saqlash organlari, shaxs jamiyat va davlat manfaatlari, salbiy ta'sirlar va oqibatlari, jazo muqarrarligi.*

Qasddan badanga turli darajada yetkazish bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini muhokama qilib, bunday qilmishlar sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonuni normasing tog'risida qo'llanilishini ta'minlash maqsadida "Sudlar tog'risidagi" Qonunning 17-moddasiga asoslanib, Oliy Sud Plenumi badanga shikast yetkazish deganda, inson organlari yoki organizmi to'qimalari anotomik tekisligi yoki ular fiziologiyasi funksiyasini tashqi ta'sir oqibatida buzilishini nazarda tutadi. Bunday jinoyatlarni to'g'ri baholay olish uchun esa badanga yetkazilgan shikastning xususiyati va og'irlik darajasini aniqlash, odatda, tibbiyot organlari vakolatiga 2012-yil 1-iyuldagi Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan tan jarohatlarining og'irlik darajasi sud-tibbiy aniqlash qoidalari asosida belgilanadi.

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlar maqsadlar (motivlar) natijasida yuzaga kelishi, jumladan, bular spirtli va giyohvand moddalarga ruju qo'yganlik yoki rashk va boshqa g'arazli niyatlarda vujudga kelishi mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyati kelib chiqish sabablari turli komplementlikka xos, chunki bu turdagi jinoyatlarning yuzaga kelishiga to'satdan yuzaga kelgan ziddiyat yoki boshqa hodisalar ham turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatlari oqibatida shaxs o'zining sog'lig'ini muayyan muddatga yo'qolishiga yoinki tuzalmaydigan kasallikka chalinishiga olib kelishi mumkin. Bu turdagi jinoyat qurbonlari jamiyat faoliyatida o'z o'rinlarini yo'qotishlari shu asnoda, jamiyatda o'rnatilgan barqaror qonun ustuvorligining o'z funksiyasini bajarishda salmoqli salbiy ta'sir o'tkazishiga sabab bo'ladi. Oqibatda omma orasida jinoyatchilikka qarshi

kurashga qaratilgan davlat funksiyasi va qonun ustuvorligiga ishonchsizlik va hurmat yo'qolishiga, bu esa o'z navbatida yana bir yangi jinoyatlarning sodir etilishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari bugungi kunda keng tarqalgan jinoyat turkumlaridan hisoblanadi. Holbuki, ushbu jinoyat jamiyatning ajralmas salbiy tomoniga aylanib bormoqda, bunday vaziyatda, avvalo, ushbu jinoyat sodir etilish sabablari va sharoitlarini muntazam ravishda tahlil qilib bartaraf etish lozim, holbuki ushbu jinoyatning turkumlarini oldini olish bilan yechim izlash biroz oddiy chora hisoblanadi. Har qanday jinoyatni oldini olish choralarini ko'rish bilan bir qatorda, bunday dolzarb jumboqqa jamiyatning o'zidan ham yechim topishimiz mumkin.

Zero, har qanday jinoyatga barham berish uchun unga adolatli va qat'iy jazo chorasi ko'rilishi lozim. Shuningdek, kelajakda ushbu jinoyatning sodir etilganligi uchun og'ir shakldagi javobgarlik prinsipini ilgari surmoq lozim. O'z navbatida, avvalo, tushuntirish, ishontirish kabi davlat funksiyalariga tayanib jamiyatda o'rnatilgan qonuniylikni hurmat qilish va rioya etish orqali tushuntirish ishlari ham darkor. Bevosita bunday sa'y-harakatlar qonunchilik mexanizmining adolatliligini ilgari suradi.

Qasddan badanga shikast yetkazish bugungi kunda keng tarqalgan salbiy jinoyatlardandir. Jinoyatni sodir etgan shaxslar bu orqali nafaqat inson hayoti va sog'lig'iga xavf soladi, balki barqaror rivojlanib borayotgan shaxsning qonuniy huquqlari va ularning jamiyat hamda davlat bilan o'zaro munosabatlariga putur yetkazadi.

Bu turdagi jinoyatlarni fosh etish hamda ularni sodir etilishiga barham berish lozim va dolzarb vazifadir. Mamlakatimiz siyosati ham shaxs huquqi va erkinliklarini doimo yuqori o'rinlarda e'tirof etadi. Demakki, inson huquq va erkinliklariga, avvalo, sog'lig'iga xavf solish esa muqarrar javobgarlikni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarori
O'zbekiston Respublikasi Qonun 703-sonli 28.07.2021 "Sudlar to'g'risidagi"